



1. Matnni o‘qing, mazmunini o‘z so‘zingiz bilan so‘zlab bering.
2. Lug‘at yordamida matnni tarjima qiling.
3. Yangi so‘zlarni yod oling, ular ishtirokida gaplar tuzing.

2- DARS

▶ **3- mashq.** Savollarga javob bering.

— Toshkentning qaysi ko‘chasida Turkiston saroyi va Alisher Navoiy nomli adabiyot muzeyi joylashgan?

—

— Shahrimizning Amir Temur ko‘chasida qaysi bog‘ joylashgan?

—

— Milliy bog‘ qaysi maydonda joylashgan?

—

— Shahrimizdagi bog‘larning nomini ayting.

—

— Maktabingiz atrofida qanday binolar bor?

—

▶ **3- topshiriq.** Matnni o‘qing, berilgan rasmdan foydalanib, topshiriqlarni bajaring.

TOSHKENTLEND

Toshkentlend 1995-yil 2-iyulda tashkil etilgan. Toshkent shahri markazida, Bo‘zsuv kanali qirg‘og‘ida joylashgan.

Toshkentlendda „Akva-park“, „Bolalar bog‘i“, „Osma yo‘l“ kabi majmualar mavjud.





Bu yerda turli attraksionlarda uchasiz, „Afrika safari“da o‘zingizni yovvoyi tabiat qo‘ynida his qilasiz. Suv havzalarida qayiqchada sayr qilib, suv attraksionlaridagi qiziqarli o‘yinlarda qatnashasiz. Do‘konlardan turli o‘yinchoqlar xarid qilasiz va yaxshi taassurotlar bilan uyga qaytasiz.

LUG‘AT

majmua — комплекс
yovvoyi — дикий
qirg‘oq — берег

tabiat — природа
qayiqcha — лодка
taassurot — впечатление



1. Matn mazmunini so‘zlab bering.
2. Matnни tarjima qiling.
3. Siz yana qanday istirohat bog‘larini bilasiz? Shu haqda kichik hikoya tuzing.

► **4- mashq.** Partadosh do‘stingiz bilan „Chet ellik sayyoh bilan suhbat“ mavzusida dialog tuzing.

N a m u n a :

— *Kechirasiz, Ko‘kaldosh madrasasiga qanday borish mumkin?*

— *Shu ko‘cha bo‘ylab to‘g‘riga yurasiz, chorrahadan o‘ngga burilasiz.*

—

YOZGI TA‘TIL

1- DARS

► **1- mashq.** Berilgan so‘z va so‘z birikmalarini qo‘llab, rasmlar mazmuniga mos gaplar tuzing.



Foydalanish uchun soʻzlar: *ta'til, reja, oromgoh, dam olish, sayr qilish, sayohatga chiqmoq, chiniqmoq, soya-salqin, cho'milmoq, baliq tutmoq, qiziqarli o'yinlar, do'stlashmoq.*

► **1- topshiriq.** Matnni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

YOZGI TA'TIL

Yaqinda darslar tugaydi va ta'til boshlanadi. Sinf-doshlar bilan yozgi ta'til rejasini tuzdik. Ko'pchilik oromgohga borishni istaydi. Ba'zi bolalar tarixiy shaharlarga sayohatga boradilar. Ba'zilar ota-onalari bilan dam olish maskanlarida hordiq chiqaradilar.

„Kamalak“ oromgohi soya-salqin yerga joylashgan. Oromgoh atrofi tog'lar bilan o'ralgan. Bu yerda ko'p bolalar bilan do'stlashamiz. Toza havoda chiniqamiz. Oromgohda hech qachon zerikmaymiz.

LUG'AT

yaqinda — скоро, на днях

ta'til — каникулы

reja — план

ko'pchilik — большинство

oromgoh — лагерь

istamoq — хотеть, желать

soya-salqin — прохладно

hordiq chiqarmoq — отдыхать

chiniqmoq — закаляться



1. Siz yozda qayerda dam olmoqchisiz?
2. Ta'tilda ko'pchilik qayerga boradi?
3. Sayohatga kimlar bilan borasiz?
4. Qaysi oromgoh sizga yoqadi?
5. Oromgohda nimalar qilmoqchisiz?

BILIB OLING!

Ish-harakatning boshqalar tomonidan bajarilishi, ya'ni III shaxs ko'plik **-lar**, **-dilar**, **-sinlar** qo'shimchalari bilan ifodalanadi.

Qarang: *Ular oromgohga ketdilar. Barcha bolalar musobaqada qatnashsinlar.*

► **2-mashq.** Gaplarni o'qing, **-dilar**, **-sinlar** qo'shimchalarini olgan so'zlarni topib, daftaringizga ko'chiring va ona tilingizga tarjima qiling.

1. Yozda do'stlarim oromgohga bordilar.
2. Boshqalar sizga yordam bersinlarmi?
3. Bu yerda bolalar do'stlashadilar, birga o'ynaydilar.
4. Sinfdozlarim kelsinlar, keyin mashinaga chiqamiz.
5. Bolalar daryo bo'yida uchrashadilar.

MUOMALA ODOBI

Marhamat!
Oq yo'!
Yaxshi boringlar.
Yaxshi dam olinglar.
Xush kelibsiz!
Ko'rishguncha xayr!

► **3-mashq.** Nuqtalar o'rniga **-dilar**, **-sinlar** qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni o'qing va dialogni davom ettiring.

1. — Sinfdozlaringiz ta'tilda qayerga bora...?
—
- U yerga yana kimlar bora...?

- Ustozlar ham ...
- 2. — Guruh rahbarlari oromgohda nima qila...?
- ...
- Murabbiylar tennis, shashka o'ynashni o'rgata...mi?
- ...
- ...

► **2-topshiriq.** Rasm asosida o'zaro suhbatlashing va **-dilar, -sinlar** qo'shimchalarini qo'llab, kichik hikoya tuzing.



2- DARS

SUHBAT

- Nodira, ta'tilda qayerga borasan?
- Buvimlarnikiga boraman. Ular menga ko'p narsani o'rgatadilar.
- Jasur, o'zing nima qilmoqchisan?
- Men oromgohga bormoqchiman. Qarindoshlarim ham men bilan birga borishadi.

- Ota-onalari rozi bo‘ladilarmi?
- Albatta-da. Amakim, „hammalari bir joyda dam olsinlar, do‘stlashsinlar“ dedilar.
- Juda yaxshi, Jasur. Yaxshi dam olinglar.
- Rahmat, Nodira. Sen ham maroqli dam olgin.

► **4-mashq.** Matnni o‘qing, III shaxs ko‘plik qo‘shimchalarini to‘g‘ri talaffuz qiling. Ajratilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzib, daftaringizga ko‘chiring.

OROMGOHDA

Yozgi ta‘tilda oromgohlar gavjum bo‘ladi. Ta‘tildan oldin oromgohlarni ta‘mirlaydilar. Bolalar uchun **o‘yingohlar** quradilar. Bu o‘yingohlarda turli **musobaqalar** bo‘ladi. Barcha bolalar shinam xonalarda hordiq chiqaradilar. **Oshpazlar** shirin taomlar pishiradilar, mevalardan mazali sharbatlar tayyorlaydilar. Murabbiylar she‘r **o‘rgatadilar**, hikoyalar aytib beradilar.

Oromgohda bolalar **tartib-intizomga** rioya qiladilar. Bu ishda navbatchilar yordam beradilar.

LUG‘AT

gavjum – многолюдный
ta‘mirlamoq – отремонтировать
o‘yingoh – стадион
tartib – порядок
rioya qilmoq – соблюдать

O'ZBEKCHA-QOZOQCHA LUG'AT

A

ahamiyat — маңыз
ahil — тату
ajdodlar — ата-бабаларымыз
ajratilgan — бөлінген
andava — мастер, қалақ
anhor — өзеншік
anjom — инвентарь (заттар тізімі)
asalari — бал ара
asar — шығарма
avval — бұрын
ayvon — дәліз, терраса

B

badantarbiya — дене тәрбиесі
barobar — тең
bastakor — композитор
bayram — мейрам
bemaza — дәмсіз
bemor — науқас
betoqatlik — сабырсыздық
beg'ubor — таза, мөлдір
birinchi — бірінші
bir dona — бір дана
bir mahal — бір күні
bormoq — бару
bola ochmoq — балапан шығару
boy, boylik — бай, байлық
buklamoq — бүктеу
bukmoq — бүгу, майыстыру
burkamoq — бүркеу
bo'yamoq — бояу

D

daha — массив
dahliz — коридор
dahshat — үрей, қорқыныш
dam olmoq — демалу
daryo — өзен
darvoza — дарбоза, қақпа
dastro'mol — қол орамал
dasturxon — дастарқан
dastyor — жәрдемші
davolamoq — емдеу
davr — дәуір, заман
dazmollamoq — үтіктеу
devor urish — қабырға тұрғызу
doim — әрқашан
duo — бата беру
duradgor — ағаш ұстасы

E

ehtiyot qilmoq — сақтау, қорғау
ekin — егіс
ekmoq — егу, отырғызу
el — халық, адамдар
eritmoq — еріту
erta — ерте, ертерек
eslab qolmoq — есте сақтау
esmoq — соғу, есу
etak — етек, алжапқыш

F

farzand — перзент
favvora — фонтан
foyda keltirish — пайда келтіру
foydali — пайдалы



G

gapirmoq — сөйлеу
garmdori — қалампыр
guldasta — букет, шоқ
guldon — гүл салу үшін
ваза
gulzor — гүлзар
go'zal — өте әдемі, сұлу

H

halok bo'lmoq — өлу, қаза
табу
halol — адал
hamshira — медбике
har kuni — күн сайын
har oyda — ай сайын
harorat — температура, қызу
haydamoq (yer) — жер жырту
hayot — өмір
hasharot — шыбын - шіркей
hech kim — ешкім
hech narsa — ешбір зат
hech qachon — ешқашан да
hikmat — даналық
hil-hil — піскен
himmatli — жомарт
himoya qilmoq — қорғау
hisoblash — есептеу
hol — жағдай
hosil — өнім
hudud — аймақ
hunar — кәсіп
hurmat qilmoq — құрметтеу
hush — сезім, сана

I

iflos — лас, кірленген
ijodkor — жаратушы
iliq — жылы, жылу
iloji boricha — мүмкіншілігіне
қарай
indamas — сөзге сараң
indin — бүрсігүні
ipak qurti — жібек құрты
isitmasi chiqmoq — қызыуы
көтерілу
ixcham — әсем
ichimlik — ішімдік

K

kasal — сырқат
kavshamoq — шайнау
kashta — кесте
kenja — кенже
kechki ovqat — кешкі тамақ
kimdir — біреу
kiyik — бұғы
kulrang — сұр
kumush — күміс
kun sayin — күн сайын
kundalik — күнделік
kurtak — бүршік
ko'karmoq — көгеру
ko'kat — көк
ko'milmoq — көміп тастау
ko'p qavatli — көп қабатты
ko'rk — сұлулық
ko'rsatmoq — көрсету
ko'zgu — айна

L

lavlagi — қызылша
laziz — тәтті
libos — киім

likopcha — тәрелке
loyiha — жоба
lo'ppi — көпірме

M

mahsulot — өнім
majmua — жинақ
makkajo'xori — жүгері
ma'no — мағына, мән
manzil — тағайындалған орын
mamnun — ырза
mard — батыл
maqtaamoq — мақтау
masofa — аралық
maslahat — кеңес
mastava — күріш кәже
maxsus — арнайы
maza — сүйкімді, жақсы
mashhur — атақты
mehmon — қонақ
mehmonxona — қонақ үй
mehmon qilmoq — қонақ ету
mehr — сүйіспеншілік
me'mor — архитектор
momiq — жұмсақ, мамық
moy — май, сары май
muhandis — инженер
muqaddas — қасиетті
musobaqa — жарыс
mustaqil — өз бетімен
mustaqillik — тәуелсіздік
muzlamoq — тоңу, үсу
mo'l — мол, молшылық

N

nafs — тілек, ықылас
na'matak — итмұрын

nechanchi — нешінші
necha so'm — неше сум
nimadir — бірдеңе
niqob — маска
nishonlash — белгілеп қою,
атап өту
nonushta — таңертеңгі ас
nok — алмұрт, нәк
novvoy — наубайшы

O

obdan — толығымен
odil — әділ
oldin — алдымен
oqko'ngil — ақ көңіл
orasta — таза, мұнтаздай
orqasida — артында, артынан
ovqat, ovqatlanmoq — тағам,
ас, тамақтану
og'ir — ауыр, салмақты
og'rimeoq — ауру
oshpaz — аспаз

P

parvarish qilmoq — бағып -
қағу
paxtakor — мақташы
paxtazor — мақта егістігі
paydo bo'lmoq — көрініп қалу
pirillamoq — пыр-пыр ету
podsho — патша
poliz — бақша
posbon — қорғаушы
po'stin — тон

Q

qad ko'tarmoq — көтерілу, өсу
qadimiy — ежелгі
qadrdon — қадірлі

qafas — қапас
qaldirg'och — қарлығаш
qalin kiyinmoq — жылы киіну
qaltiramoq — қалтырау
qariya — қарт
qayerda — қай жерде?
qayerga — қайда?
qaynatma — пісірілген
qizg'in — ыстық, қарқынды
qoplamoq — қаптау
qorbo'ron — қар ойыны
qovurma — қуырылған
qurilgan — құрылған
qurilish — құрылыс
qurolli kuchlar — қарулы күштер
quvlash — қуып жету, қуу
quvonch — қуаныш
quvvat — күш
quyuq — қою
qo'lda termoq — қолда жинау
qo'lda yasalgan — қолда жасалған
qo'ymoq — тұрғызып қою, қою

R

raqam — сан
raqs — би
rassom — суретші
rioya qilmoq — сақтау
rost — шын

S

sahifa, varaq — бет, парақ
sahro — шөл
sanalmoq — санасу
salqin — салқын
saqlamoq — сақтау
saralamoq — таңдап алу, сорттау
sardor — жетекші, басшы
saroy — сарай
sarg'aymoq — сарғау
sayohat — саяхат жасау
sayramoq — сайрау
sayr qilmoq — серуендеу
sayyoh — саяхатшы
sergak turmoq — сақ болу
soha — өріс, айнала
soz — музыкалық аспап
sozanda — музыкант
sport anjomlari — спорт инвентарлары
supurmoq — сыпыру
surtmoq — жағу
suyuq — сұйық
suzish — жүзу

T

taajjublanmoq — таңдану
tabiiy boylik — табиғи байлық
takrorlamoq — қайталау
talaffuz — айту
tan berish — мойындау
tanimoq — тану
taqsimlamoq — бөлу
taramoq — тарау

tarixiy obida — тарихи

ескерткіш

tasma — таспа

tasvirlash — бейнелеу

terimchi — жинаушы

tez aytish — жаңылтпаш

tezroq — тезірек

tikuvchi — тігінші, тігінші әйел

tinglamoq — тыңдау

tomir — қан тамырлары

tomosha — ойын-сауық

tomchi — тамшы

topmoq — табу

tortib bermoq — тартып беру

toza havo — таза ауа

toshbaqa — тасбақа

toshqin — толқынды

tur — түр

turp — турп

tuyaqush — түйе құс

tuyoq — тұяқ

tuzsiz — тұзсыз

tushlik — түстік

tushuntirmoq — түсіндіру

to'kilmog — төгілу

to'r — тор

U

ustun — бағана

uy daftari — үй дәптері

uzaymoq — ұзару

V

varrak — әуе жыланы

vatan — отан

vayron qilmoq — қирату

voyaga yetmoq — көмелетке
жету

X

xalta — қап

xartum — тұмсық

xayol — қиял, ой

xazina — қазына

xil-xil — әр түрлі

xirmon — қырман

xiyobon — сквер

xizmat — қызмет, жұмыс

xola — апа (ананың
сіңлісі)

xonadon — пәтер

xotira — ес, еске түсіру

xotirjamlik — тыныштық

xushmuomala — сыпайы

Y

yalpiz — жалбыз

yaltiramoq — жылтырау

yaqinda — жақында

yasamoq — жасау, шеберлік
істеу

yasatmoq — жасану, безендіру

yer haydamoq — жер жырту

yerto'la — жер төле

yetim — жетім

yetib kelmoq — үлгеру

yigitcha — бозбала

yig'ilish — жиналыс

yig'im-terim — астықты жинап
алу

yodda tutmoq — есте сақтау

yodlamoq — жаттап алу

yonida — жанында, қасында

yoqimli — жағымды

yoqtirmoq — сүю

yordamlashmoq — көмектесу

yorug' — жарық
yotoqxona — жататын бөлме
yog'moq — жауу
(жаңбыр, қар)
yog'och — тақта
yugurmoq — жүгіру, қашу
yurish — жүру, жүріс
yurt — өлке, отан, ел
yuvinish xonasi — ванна
yuvmoq — жуу

Z

zamonaviy — осы заманғы
zar — алтын
zararli — зиянды, залалды
zina — басқыш
zumda — лезде
zo'r — күшті, қуатты

O'

o'lka — өлке
o'quv qurollari — оқу
құралдары
o'rganmoq — үйрену, оқу
o'rmon — орман
o'rtasida — ортасында,
арасында
o'tirmoq — отыру
o'xshamoq — ұқсас болу
o'yin-kulgi — сауық-сайран

G'

g'alaba — жеңіс
g'ayrat bilan — жігермен,
ынтамен
g'olib — жеңімпаз

SH

sharaf — абырой
sharbat — шырын
sharoit — жағдай
shekilli — болса керек
shinam — жайлы
shirin taom — дәмді тамақ
shishirmoq — үрлеп толтыру
shod-xurram — көңілді,
қуанышты
shon-shuhrat — даңқ
shotut — қызыл тұт

CH

chalmoq — тарту (музыкалық
аспапта)
chanoq — мақта қауашағы
chaqqon — епті
charxpalak — айналма
өткеншек
chang — шаң
chang'i — шаңғы
chigit — мақта тұқымы
chilla — шілде
chin dildan — шын ниетпен
chiniqtirmoq — шынықтыру
chirillamoq — шырылдау
chiroy ochmoq — өте өдемі
болу
chumoli — құмырсқа
cho'kmoq — бату
cho'miltirmoq — шомылдыру

MUNDARIJA

O'zbekiston — Vatanim manim	4
Qadrdon maktabim	8
Bizning sinfimiz	13
Bizning uyimiz	19
Bog'da	25
Kuzgi ishlar	32
Bozorda	39
Oshxonada	43
Kiyim do'konida	48
Sport, sport, sport!	53
Salom, yangi yil!	57
Qish o'yinlari	62
Kasblar	66
Kitobni asrang	70
Orasta bo'ling	74
Yil fasllari va ob-havo	79
Bahor keldi	84
Xotin-qizlar bayrami	89
Navro'zi olam keldi	93
Qushlar va hasharotlar	97
Oila a'zolarining bir kuni	102
Tinchlik barqaror bo'lsin	107
Poytaxtimiz chiroyi	111
Yozgi ta'til	115

**ABDUROZIQ RAFIYEV,
GULNORA MUHAMMADJONOVA**

O‘ZBEK TILI

**Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarning
4- sinfi uchun darslik**

5- nashri

*„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2013*

Muharrir *G. Nasriddinova*
Badiiy muharrir *D. Mullaaxunov*
Texnik muharrir *T. Greshnikova*
Kompyuterda sahifalovchilar: *Sh. Yo‘ldosheva*
F. Hasanova

Nashriyot litsenziyasi AI №161. 14.08.2009. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi
25.05.2013. Bichimi 70×90^{1/16}. Kegli 12, 14 shponli. Garn. Helvetika. Ofset bosma
usulida bosildi. Ofset qog‘ozi. Shartli b. t. 9,36. Hisob-nashriyot t. 6,5. Bosma t. 8,0.
Adadi 5297 nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Toshkent—129. Navoiy ko‘chasi, 30-uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi,
Yangishahar ko‘chasi, 1-uy. Shartnoma № 07–04–13.

**Ijaraga beriladigan darslik holatini
ko'rsatuvchi jadval**

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.